

PSIXOTROP DORI VOSITALARI SALBIY ALOMATLARI

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

XAFIZOVA MEXRIBON ABDUXALIMOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola psixotrop dori vositalari salbiy alomatlari ushbu dori vositalari ularni olish usullari, tibbiyotda qo'llanilish sohalariga mo'ljallangan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются негативные симптомы психотропных препаратов, способы их приема и применение в медицине.

Abstract: This article is intended to address the negative symptoms of psychotropic drugs, the methods of taking these drugs, and the areas of application in medicine.

Psixotrop moddalar, neyro leptik moddalar, neyroleptiklar — kishining psixik faoliyatiga ta'sir etadigan dorilar guruhi; ular es-hushni buzmay, alaxlash, gallyutsinatsiya va psixozga xos boshqa belgilarni yo'qotadi. Nerv kasalliklari va psixik kasalliklarni davolashda qo'llanadi. Ta'sir etishiga ko'ra neyroleptiklar (aminazin), anksiolitiklar (seduksen va boshqalar), psixostimulyatorlar (fenamin va boshqalar), antidepressantlar (amitriptilin) va hokazolarga bo'linadi. Odam o'ldirish, zo'rlash, zaharlanish, ko'zbo'yamachilik, o'g'irlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarni qo'llash, tayyorlash, saqlash va sotish kabi har xil toifadagi jinoiy ishlarni tergov qilish, sudda ko'rish jarayonida giyohvandlik va kuchli ta'sir qilish xususiyatlariga ega bo'lgan dori vositalari, ko'knori, nasha va boshqa o'simliklardan qo'lda tayyorlangan giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlar ashyoviy dalil sifatida uchrashi mumkin.

Predmeti: Maxsus bilimlar asosida ushbu moddalarning muayyan massalarini o'zaro solishtirish orqali umumiy manbaini belgilash, tekshirilayotgan moddalarni ma'lum bir sinf, turga taalluqliligini, ularning o'sgan joyi, vaqti va ishlab chiqarish usulini aniqlash bilan bog'liq faktlar ekspertizaning predmetini tashkil qiladi.

Giyohvandlik vositalarining ob'ektlari: Nasha va ko'knor o'simliklari, ulardan qo'lda tayyorlangan giyohvandlik vositalari, farmasevtika sanoatida va dorixonalarda tayyorlangan giyohvandlik dori vositalari shu ekspertizaning ob'ektlaridir.

Psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning ob'ektlari: kukun (poroshok)lar, tabletkalar, eritmalar, surtmalar, aralashmalar va ularning qoldig'ini saqlaydigan turli buyumlar (shpris, igna, ampula, stakan, piyola va boshq.) farmasevtika sanoatida ishlab chiqarilgan uyqu chaqiruvchi va narkotik

xususiyatlariga ega bo'lgan barbitur kislotalari va benzodiazepin hosilalari (barbital, natriy barbitali, barbamil, fenobarbital, natriy etaminali, siklobarbital, gekسابарbital, noksiron, xloralgidrat, xlorbutanolgidrat va boshq.), markaziy asab tizimini tinchlantiruvchi psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, fenotiazin, butirofenon qatori preparatlari, epilepsiyaga qarshi va neyroleptik hamda boshqa kuchli ta'sirga ega, tana skeletining mushaklarini bo'shas Giyohvandlik vositasi, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning har bir namunalari ekspertizaga yuborilayotganda alohida idishga (shisha idish, probirka, polietilen xaltacha) joylanadi.

Afyon ekstrakti, suyuq nasha kabi suyuq holda bo'lgan ashyoviy dalillar og'zi mahkam berkitiladigan maxsus idishga solinadi.

Yangi uzilgan nasha va ko'knor o'simliklari chirib, tekshirishga yaroqsiz bo'lib qolmasligi uchun ekspertizaga yuborishdan oldin soyada xona haroratida quritilishi lozim.

Musodara etilgan o'simlik massasini ekspertizaga uning hamma qismlari (guli, bargi, poyasi, ildizi) saqlangan holda va 1 kg dan kam bo'lmagan miqdorda yuborish kerak.

Agar o'simlik massasida qo'shimcha zarralar mavjud bo'lsa, ularni tashlab yubormay birga taqdim etish lozim, chunki ular jinoyat sodir etilgan joy haqida ma'lumot berishi mumkin.

Basharti, agar o'sgan joyini aniqlash bilan bog'liq vazifalar hal etilayotgan bo'lsa, tekshiriladigan modda (ko'knor va nasha o'simligi, nasha va maydalangan ko'knor o'simligi namunalari) bilan birga solishtirish uchun taxmin qilingan o'sha joyda o'sgan boshqa o'simliklar taqdim etilishi kerak.

Ekspert oldiga giyohvandlik vositasini tayyorlash usulini aniqlash vazifasi qo'yilganda tekshirilayotgan moddalar bilan birga ekspertizaga ularni tayyorlashda ishlatilishi mumkin bo'lgan har xil asbob (press moslama, elaklar, pichoq, kurakcha, tarozi, qiyma qiladigan asbob va h.k.)lar ham yuborilishi shart.

Identifikatsion masalalar hal etilayotgan bo'lsa, ob'ektlar butunligicha yuboriladi. Buning iloji bo'lmagan taqdirda shu ashyoviy dalillarning fraksion va kimyoviy tarkibini to'liq ifodalaydigan namunalari olinishi kerak.

Tekshirilayotgan ob'ektlarning bir butunga taalluqliligi aniqlanayotganda, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud iloji boricha bir butunning aniq hajmini ko'rsatishi kerak.

Ashyoviy dalillarni saqlash qoidalariga rioya qilmaslik ularni tekshirishga yaroqsiz holga yoki butunlay yo'qolib ketishiga olib keladi.

Ashyoviy dalillardan tashqari ekspert ixtiyoriga solishtirish uchun namunalar, sud-tibbiy ekspertizasining xulosasi, voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish

bayonnomasi, ashyoviy dalillarni olib qo'yish bayonnomasi va boshqa zarur materiallar taqdim etilishi kerak.

Doriga o'tirib qolganimni, hayotim barbod bo'lganini bilgach, otam uydan haydab yuborgan. Holbuki uning o'zi aybdor edi barchasiga. Onam ketib qolgandan so'ng uyga deyarli kelmas, menga e'tibor berish tugul, kamdan-kam vaqtlarda pul berardi. Uyda yeyishga hech vaqo qolmagach, kafeda ishlay boshladim. O'n besh yoshli qizga ofitsiantlik qilish osonmasdi, kechga borib, oyoqlarimda jon qolmas, uyga sudralgancha qaytardim. Shunday kunlarning birida madorsiz yurganimni ko'rgan ishchilarimizdan biri "ol, tetiklashtiradi", deya dori uzatdi. Hech nimani o'ylamay ichib yubordim. Birozdan so'ng rostdan ko'zlarim ochildi, kayfiyatim ko'tarilib, hammaga tabassum bilan qaray boshladim. Ertasi kuni Gulidan bu "sehrli mehrigiyo"ni o'zim so'rab oldim. Bora-bora, kuniga ikkita, keyinroq beshta-o'ntagacha ichdim. Kafeda ish vaqti sarxush yurishimizni payqab qolishgach, ikkimiz ham haydaldik. Shundan keyin duch kelgan ishni qildim, lekin endi men oldingi esli, tortinchoq, qo'rqoq "men" emasdim. Dori uchun hamma narsaga tayyor edim, yigitlar bilan yurar, bozorda o'g'rilik qilar, ko'chada odamlardan uyga yetvolay deb, aldab pul so'rardim. Chunki tabletkalarni ichmasam, butun tanam qaqshab og'rir, miyam ishlamay qolardi. Hech kim, hech narsa yoqmas, kichik shovqin ham tanamga yuzlab igna sanchgandek og'riq berardi. Bir kuni tanishlarim bilan toqqa yo'l oldik. Yo'l-yo'lakay dori ichib ketardik, ruldagi yigitning kayfi oshib, oldinda kelayotgan mashinani ko'rmay qoldi. Nimaningdir qattiq qarsillagan ovoizidan so'ng esimda qolgani – olov va o'zimning isib ketayotganim, kimningdir yordam so'rab baqirayotgan ovozi edi. Keyinroq bildimki, avariyaadan birgina men tirik qolibman, na yolg'iz o'g'il bo'lgan boyvachcha tanishim, na uning o'rtoqlari va na Guli. Shundan so'ng davolanishga qaror qildim. Hozir ancha yaxshiman, lekin baribir doriga yana qaytishdan qo'rqaman, chunki ortda qolgan kunlarim do'zaxdek tuyiladi bugun... - Siz nazarda tutgan dorilardan uzoq yillardan buyon tibbiy maqsadlarda foydalanib kelinardi. Yaqin-yaqingacha bu preparatlarning o'ziga tobelik chaqirish xususiyati aniqlanmagan, hatto. Jamiyatda ularga qaramlikning paydo bo'lishida esa bir nechta sabablar ko'proq kuzatiladi.

Birinchisi bu – biologik omillar. Inson organizmida ma'lum moddalar almashinuvi bilan bog'liq xastaliklar nasldan-naslga o'tadi. To'g'ri, narkologik kasalliklar irsiy o'tmaydi, ammo yaqin qarindoshlar, ota-onalarda ruhiy xastalik yoki biror bir moddaga tobelik kuzatilgan bo'lsa, bolada bunday moddalarga qaramlikning paydo bo'lish xavfi yuqori bo'ladi. Shuningdek, biologik omilda jins ham ahamiyatli. Ya'ni bu kasallik ko'proq erkaklarda uchraydi.

Ammo kuzatuvlarga ko'ra, kasallik so'nggi vaqtlarda xotin-qizlarimiz ichida ko'p uchrayotgan ekan?

Unday emas. Masalan, hozir bizda davolanayotgan bemorlarning soni 60 tacha bo'lsa, ularning 3 yoki 4 tasi ayollar, qizlar. Umumiy statistikaga murojaat qilsak, kasallanganlarning 1-1,5 foizni ayol bemorlar tashkil etadi. Shunday ekan, bu gaplarda asos yo'q, deya olaman.

Yuqoridagi savolingizga javobni davom ettirsam, ikkinchi sabab ijtimoiy omillar bo'lib, bu mikro va makroiijtimoiy sabablarga bo'linadi.

Ba'zi odamlar farzandiga haddan tashqari e'tiborli bo'lib, keragidan ortiq g'amxo'rlik ko'rsatadi. Bunday muhitda katta bo'lgan farzand ota-onasiz biror mustaqil ish qila olmaydi. Natijada hayotidagi qiyin vaziyatlarda kerakli qarorni qabul qila olmaslik yoki stressli holatlardan ijtimoiy maqbul yo'l bilan chiqa olmaslik turli xil dorilarning iste'moliga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bu holatning aksi o'laroq, ota-onalarning farzandga o'ta talabchanligi, qattiqqo'lligi ham sabab bo'ladi.

Bundan tashqari ota-onalar tirikchilik bilan bo'lib farzandlarini o'z holiga tashlab qo'yadi. Bunday bolalar ko'chada sang'ib yuradi, noto'g'ri yo'lga boshlovchi shaxslarning ta'siriga tushib qoladi. Ota-onalari bo'lsa bolaga o'zi berolmagan mehr, vaqtning o'rnini moddiy rag'batlantirish bilan to'ldirmoqchi bo'ladi. Oqibat farzandda atrofdagilarga, birinchi navbatda o'z ota-onasiga nisbatan iste'molchilik munosabati shakllanadi, ota-onasining buyurgan ishini bajarishi uchun ulardan nimadir talab qila boshlaydi, to'qlikka sho'xlik qiladi, yangi va yangi narsalarga qiziqish paydo bo'ladi.

Giyohvand vositalar va psixotrop moddalar iste'moli tarqalishining oldini olish borasida davlatning siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Gollandiyada ba'zi narkotik moddalari legallashtirilgan, sotuviga rasmiy ruxsat berilgan. Ular shirinliklar, ichimliklar, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida ham bemalol ishlatiladi. Aholi, yoshlar o'rtasida bu moddalarning zararlari haqida umuman ma'lumot berilmaydi, ya'ni tanlov uchun erkinlik berilgan. Natijada shu kabi yo'l tutuvchi bir qancha Yevropa va AQSHning ba'zi shtatlarida giyohvandlik, psixotrop dorilarga qaramlik keng tarqalgan. Shuningdek, jamiyatda shu moddalarning zarari haqidagi ma'lumotlarga, profilaktika tizimiga ham ko'p narsa bog'liq.

Surishtiruvlarimizda psixotrop dorilarga qaramlik maktab yoshidagi bolalarda ham uchrayotganini aytishdi. Bemorlaringiz orasida ham shu yoshdagilari bormi? O'zi, umuman, bu qaramlik odatda necha yosh oralig'ida kuzatiladi?

- Oxirigi yillarda qaramlik yoshlar o'rtasida uchrashi ko'paymoqda. Bizda zaharvandlikdan davolanayotgan bemorlarning eng kichigi 20-23 yosh atrofida. Aytganingizdek, ba'zi tegishli idoralarning maktablardagi so'rovnoma, surishtiruvlariga ko'ra, 14-15 yoshli o'spirinlar, o'smirlar orasida bu hol kuzatilgan. Lekin bizga bo'lgan murojaatlar ichida bu yoshdagilar yo'q. To'g'ri, ota-onalar farzandlaridan shubhalanib, shifoxonaga olib kelishadi bolalarni. Tekshiruvlar

natijasida ularning qonida tamaki, alkohol qoldiqlari topiladi, ammo shu vaqtga qadar ularda psixotrop moddalar aniqlanmagan.

Balki bu holat bordiru, ota-onalar jamiyatdan yashirishar, “o‘zbekchilik” degandek?

Bilasizmi, men sohada 1988-yildan buyon ishlayman. Va aytishim kerakki, kasallikni qanchalik yashirmang, alal-oqibat, albatta, oshkor bo‘ladi. Avvallari ota-onalar bu holni berkitgan, lekin bugun bu boradagi ma’lumotlar yetarlichaligi, tushuntirish ishlari olib borilgani sabab, ular ham kasallik qancha tez davolansa, shuncha yaxshi bo‘lishini bilishadi. Shuningdek, bizga o‘zlari istab murojaat qilishsa, ro‘yxatga olinmaydi, shaxsiy ma’lumotlar sir saqlanishi kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.tabib.org/wiki/Psixotrop_moddalar
2. https://sudex.uz/?page_id=64
3. <https://oyina.uz/uz/article/1247>